

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIKANING XUSUSIYATLARI**Daminova Fotima***Termiz Davlat universiteti ijtimoiy fanlar**fakulteti Boshlang'ich ta'lim yonalishi**4-kurs 520 -guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim didaktikasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, boshlang'ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko'nikma, samara, malaka, yondashuv, o'qitish, metod.*

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim didaktikasi asoslarini idrok etib olish maqsalga muvofiqdir. Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. "Didaktika" so'zi lotincha bo'lib, o'qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o'rganadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: 1) o'qitish; 2) ta'lim berish; 3) o'qish. Didaktikaning o'qitish kategoriyasi ta'limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi. Didaktikaning ta'lim berish kategoriyasi quyidagilarni bildiradi: - bilim berish; - ma'lumotlar uzatish; - o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish; - o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;

- o'quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim berish kategoriyasi o'qituvchining (pedagogning) faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Didaktikaning o'qish kategoriyasi quyidagilarni ifodalaydi: - o'quvchilarning davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi; - o'quvchilarning berilgan topshiriqlarni bajarishi; - o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va mustaqil fikrining shakllanishi. O'qish kategoriyasi ta'lim oluvchilar faoliyati bilan amalga oshiriladi. Didaktikaning asosiy vazifasi o'quv faoliyatini amalga oshirishdir. O'quv faoliyati quyidagilarni qamrab oladi: - bilimlar majmuini berish va egallash; - o'quv faoliyatini turli vositalar va metodlar asosida tashkil etish; - o'quvchilarning savodxonligini oshirish; - o'quvchilarning bilish tajribasini kuchaytirish. Didaktikaning o'quv faoliyatidagi samaradorligi ichki va tashqi mezonlar bilan

belgilanadi. Bunda ichki mezon ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan iborat, tashqi mezon esa ta'limning umumiy samaradorligi bilan belgilanadi. Bu mezonlar asosida o'quv faoliyati tartibga solinib boriladi va unda sifat hamda samaradorlik darajalariga ko'ra o'quv faoliyati baholanadi. Didaktika nazariyasi va amaliyotiga doir bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada ayniqsa chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (XVII asr) "Buyuk didaktika" asari muhim hisoblanadi. Bu asarda quyidagilar didaktikaning asosiy tamoyillari sifatida asoslab berilgan: a) bolaparvarlik; b) xalqparvarlik; d) insonparvarlik; e) bag'rikenglik. Didaktikaning mazkur tamoyillari hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonida qabul qilingan bo'lib, ular pedagogik qonuniyatlar sifatida qaraladi. Bunday yondashuv natijasida butun dunyo ta'lim tizimida gumanizm ideal g'oya sifatida qabul qilingan. Unga ko'ra, ta'lim olish va ta'lim berishda insonning yoshi, jinsi, irqi, millati va ijtimoiy mavqei hisobga olinmaydi. Shu jihatdan keyingi 4 asr davomida pedagogika fani insonparvarlik san'ati sifatida e'tirof etib kelinmoqda. O'zbekiston sharoitida o'quv faoliyati didaktikaning qonuniyatlari va tamoyillariga qat'iy amal qilingan holda tashkil etilgan. Shu sababli mamlakatimiz

ta'lim tizimi xalqlarning ilg'or rivojlanib boruvchi ta'limi ro'yxatiga kiritilgan. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining xususiyatlari. O'zbekiston pedagogik fanlari tarkibida boshlang'ich ta'lim didaktikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: - 7-11 yoshli o'quvchilarni bilim olamiga olib kirish; - mazkur yoshdagi o'quvchilarni jamiyatning talab va ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish; - boshlang'ich ta'limda eng zamonaviy va maqbul o'quv fanlarini qo'llash. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim didaktikasida asosiy e'tibor o'qitish va o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishiga qaratiladi. Shu sababli 2020-2021 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim davlat standartlari qayta ko'rib chiqildi va o'quv fanlari maqbullashtirildi. Misol uchun, o'zbek pedagogikasi tarixida ilk bor "Tarbiya" o'quv fani yaratildi va ta'lim jaraeniga tatbiq etildi. Boshlang'ich sinflarda mazkur fan o'quvchilarning ongi, dunëqarashi va axloqini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asosan shakllantirishga yo'naltirilgan. Boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qitishning sifat va samaradorligiga erishish bosh maqsad hisoblanadi. Shu jihatdan o'zlashtirish jarayoni quyidagi darajalar asosida baholanadi: 1) fanlarning (hodisalarning, voqelikning, faktlarning) o'quvchilar tomonidan farqlanishi va o'zlashtirilishi; 2) fanlar materiallarini tushunishi va ular asosida o'quvchilarning o'z bilimlarini boyitib borishi. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim didaktikasida o'qituvchilarning individual o'qitish uslublari muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekiston boshlang'ich ta'limida bin nechta fan o'qituvchilari o'quv faoliyati bilan

shugʻullanmoqda. Mazkur oʻqituvchilarning har biri oʻzining individual oʻqitish uslubiga ega. Ayni paytda, boshlangʻich taʼlim davlat standartlariga muvofiq oʻqituvchilarning turli oʻqitish uslublari pedagogik qonuniyatlar asosida umumiy lashadi. Bunda quyidagi qonuniyatlar asosiy vazifani bajaradi: - mavzularning tushuntirish va oʻrgatish metodlari asosida yoritilishi; - har bir oʻquvchining mavzularni oʻzlashtirishga erishilishi; - oʻquvchilarning yoshi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos oʻquv vositalarining tanlanishi; - oʻquvchilarni mustaqil taʼlim olishga yoʻnaltirilishi. **NATIJALAR**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavakat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jamiyatda kitobxonlik qadriyati qayta tiklandi. Buning natijasida boshlangʻich taʼlim

didaktikasida ham yangilanish roʻy berdi. Unga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilarning kitob oʻqishlari va ularni muhokama qilishlari boshlangʻich taʼlim didaktikasining tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik olimlarning oldida boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻqishi zarur boʻlgan adabiyotlar majmuini tuzish va kitobxonlikning didaktik muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Shu sababli oliy pedagogik taʼlim jaraʼnida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari boshlangʻich taʼlim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari toʻgʻrisida aniq bilimga ega boʻlishi kerak. Boshlangʻich taʼlim didaktikasida oʻqitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda oʻquvchilarning bilim darajasi va koʻnikmasi bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga asosiy eʼtibor qaratiladi. Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlangʻich taʼlimda masofaviy taʼlim, kompyuterli texnologiyali taʼlim kabilar keng qoʻllanilmoqda. Shu sababli bunday texnologiyali taʼlim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat boʻlib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz quyidagicha: kompyuter kabi texnik imkoniyatlar boshlangʻich taʼlimda maqsad emas, balki vosita boʻlishi kerak. Bunday yondashuv 7-11 yoshli oʻquvchilarning texnik vositalardan oqilona foydalanish koʻnikmasini shakllantiradi. Boshlangʻich taʼlim didaktikasi samaradorligi. Oʻzbekiston sharoitida boshlangʻich taʼlim didaktikasining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi: a) oʻquv jarayonini eng yuqori talablar asosida tashkil etish; b) boshlangʻich taʼlimni professional oʻqituvchilar bilan taʼminlash; d) boshlangʻich taʼlim davlat standartlarini qatʼiy bajarish.

MUHOKAMA

Mazkur mezonlarga binoan boshlangʻich taʼlim didaktikasining samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlangʻich taʼlimda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qoʻllanilayotganligi bois boshlangʻich taʼlimning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan

baholanmoqda. Biroq, boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo O'qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o'qituvchining asosiy maqsadi o'quv fanlarini talab darajasida o'qitish, tushuntirish va uning yo'nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim didaktikasining samaradorligiga erishish ko'nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak: - boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha bilimlarni egallash;

- boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir qo'shimcha adabiyotlarni o'qish; - "Boshlang'ich ta'lim" jurnali va "Ma'rifat" gazetalari bilan muntazam tanishib borish; - Ustozlardan boshlang'ich ta'lim didaktikasiga doir maslahatlar olish.

XULOSA

O'zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim didaktikasi bo'yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning boshlang'ich ta'lim didaktikasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo'lib turibdi. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarining bilim va ko'nikma darajasi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limni bitiruvchilar ushbu ta'lim maskanlarining qaysi birida ko'p o'qishiga qarab boshlang'ich ta'lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang'ich ta'lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, hozirgi zamon "Boshlang'ich ta'lim didaktikasi" mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil 1 oktabr soni.
2. Abdullayeva B. va boshq. *Общая педагогика*. – Т.,2017.
3. Kupisevich Ch. *Основы общей didaktiki*. – М.,1986
4. Jabborova Onahon Mannarovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception

of future teachers. International journal of psychological and rehabilitation, 24(4), 4087-4095.

5. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. European journal of research and reflection in educational sciences, 7(10); 9-14.

6. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232.

7. Mardonov Sh.K., Jabbarova O.M. Zadachi urokov izobrazitelnogo isskustva v nachalnoy shkole. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 862-870.

8. Tojiboeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 209-215.

9. Musurmonov Raxmatulla, Musurmanova Maluda. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 777-783.

9. Юсупова, О. (2023). DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).

10. Sevara, A., & Akhmadaliev, D. (2023). The Major Issues in Teaching and Writing of Contemporary Literature. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 1(9), 91-95.

11. Akhmadaliyeva, D. R., & Igamberdieva, S. A. Methodology of Developing Media Competence In The Process of Teaching English to Students of Technical Higher Educational Institutions. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT.